



TOPONIMLARNING TARIXIY ETIMOLOGIK QATLAMLARGA MUNOSABATI

Jumanova Zulfizar Sunnat qizi

QarDU Lingvistika o'zbek tili yo'nalishi magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7878006>

ARTICLE INFO

Received: 21th April 2023

Accepted: 28th April 2023

Online: 29th April 2023

KEY WORDS

*Toponimika, toponimik
aniqlagichlar, etimologiya,
diaxron va sinxron so'z
yasalishi, atoqli ot, affiksatsiya,
kompozitsiya, onomastik
konversiya.*

ABSTRACT

Maqolada toponimlar, toponimlarning yasash xususiyati, tarixiy toponimlar etimologiyasi haqida so'z yuritilgan.

Etimologiya har vaqt tilshunoslikning muammoli masalalaridan biri sanalanadi. Mushohada etilayotgan obyekt mohiyati ba'zida qabul qilinib, ba'zida esa e'tirozlarni keltirib chiqaradi. Chunki taklif etilayotgan muammoning isboti sifatida xizmat qilgan dalillarning ayrimlari asosli, ayrimlari tasodifiy hisoblanadi. Joy nomlari ma'lum tarixiy davrlarda paydo bo'lgan va ularda xalqning tarixi, etnografik, diniy tasavvurlari, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari o'z ifodasini topadi. Toponimiya xalqning madaniy, ma'naviy, lisoniy boyligi hisoblanadi. Yer yuzida millionlab joy nomlari mavjud. Yer yuzidagi barcha geografik obyektlarning: dengiz-u daryo, tog'-u cho'qqi, shahar-u qishloq, mahalla-yu ko'chalarning o'z nomi bor. Toponimlar tizimidagi barcha nomlarning kim tomonidan berilgani, qachon paydo bo'lganini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Shunga ko'ra ko'pgina joy nomlarining ijodkori xalq va bunday nomlar tabiiy toponimlar yoki xalqona nomlar deb ham yuritiladi. Toponimlar til lug'at fondining bir qismini tashkil etadi. Shu bilan birgalikda toponimlar tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina farq ham qiladi. Bu farq joy nomlarining uzoq yashashida, shuningdek, ularning polikomponentli, ya'ni ko'p komponentlardan – tarkibiy qismlardan iborat bo'lishida va har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra, toponimlar yasashda turdosh otlar ishtirok etishida o'z ifodasini topadi. Toponimlarni yasashda shu til uchun xos bo'lgan lingvistik vositalardan foydalaniladi, lekin shu bilan birgalikda har bir tilda toponim yasovchi o'ziga xos vositalar paydo bo'ladi, ya'ni muayyan affikslar va so'zlar faqat yoki aksari toponimlar yasashga ixtisoslashib qoladi. Toponimikani o'rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina joy nomlari juda ham qadimiy hisoblanadi. Ibtidoiy yozma yodgorliklarda qayd qilingan toponimlarni keyinroq uchraydigan shakllari va hozirgi talaffuzi bilan solishtirib, tilning lug'at tarkibida, so'zlarning dastlabki shaklida ro'y bergan o'zgarishlarni bilib olishimiz mumkin.



Toponimlar o'zining nisbiy barqarorligi bilan boshqa leksik unsurlardan farq qilib turadi. Tilning barcha sathlari jamiyat taraqqiyoti va tarixiyli bilan hamohang tarzda o'zgarib, taraqqiy etib boradi.

Toponimlarning paydo bo'lishida bir qancha qonuniyatlar mavjud. Masalan,

ko'pgina toponimlar oddiy turdosh otlardan iborat bo'lgan va vaqt o'tishi bilan atoqli otlarga, ya'ni toponimlarga aylanib ketgan. Masalan: qadimda odamlar *suv, soy, buloq, daryo, qo'rg'on, yer, kent, ko'l, to'qay, qal'a* deb atashganlar. Keyinchalik bu so'zlar geografik nomga aylanib ketgan. Oddiy so'zlarga, toponimlarga aniqllovchi qo'shish yo'li bilan ham toponimlar hosil bo'lishi mumkin. Bunda aniqllovchi sifat so'z turkumidan, otdan, sondan, ravishdan, sifatdoshdan iborat bo'lishi ham mumkin. Masalan: *Yangiyer, Kattaqo'rg'on, Ko'kbuloq; Qumqo'rg'on, Toshqal'a, Taxtako'prik; Uchtepa, Beshbola, Uchtom; Qaynarbuloq, Xo'jabaqirgan, Kuyganyor*.

Geografik obyektlarga nom qo'yishda **o'xshatib nomlash** ham mavjud. Bu har xil maqsadlarda bo'lgan bo'lishi mumkin. Masalan, Samarqandning ayrim hududlarida *Damashq, Parij, Sheroz, Bag'dod, Misr* kabi joy nomlarini uchratishimiz mumkin. Bu nomlar o'z davrining mashhur shaharlaridan hisoblangan. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur Samarqandning shuhratini oshirish maqsadida poytaxt atrofiga bir qancha qishloqlar qurib, o'sha vaqtdagi mashhur shaharlar nomini qo'ygan: *Damashq, Parij, Sheroz, Bag'dod, Misr* va boshqalar. Bularning ba'zilari hozir ham nomini saqlab keladi.[4-12]

Toponimikani o'rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ko'pgina joy nomlari juda ham qadimiy bo'lganligi sababli ularni keyinroq uchraydigan shakllari va hozirgi talaffuzi bilan solishtirib, tilning lug'at tarkibida va so'zlaming dastlabki shaklida ro'y bergan o'zgarishlarini bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, hozirgi Navoiy viloyati hududida joylashgan Nurota nomini ba'zilar mo'g'ulcha va o'zbekcha **tov** so'zlaridan tashkil topgan va "tog" degan ma'noni bildiradi deb taxmin qiliashadi. Lekin Nurota toponimi bundan ming yil oldin ham qayd qilingan. Buxoro tarixchisi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida (934-944-yillarda yozilgan) Nur degan joy nomini tilgan oladi va uni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb atashini qayd etib o'tadi. Nuri Buxoro, ya'ni Buxoro Nuridan boshqa Nurlar ham bo'lgan. Masalan, Zarafshonning ikkita tarmog'i – Qoradaryo bilan Oqdaryo oraliqidagi Miyonko'l orolida ham Nur degan qishloq bo'lgan. Uni boshqalardan farq qilish uchun Nuri Miyonko'l deb atashgan. Shunday qilib, Nur bora-bora Nurota bo'lib ketgan: nur so'zi (arabcha) "yorug'lik", ota esa toponimlar tarkibida "aziz avliyolarning qadamjosi" degan ma'noni bildiradi.[3-7]

Manbalarda qayd etilishicha, Samarqand shahri Aleksandr Makedonskiy yilnomalarida Marokanda, sug'd yozuvlarida Smarakans, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirxond, Amir Temur saroyiga kelgan ispan elchisi Lui Gonzales de Klavixo asarlarida Semizkent, Chingizxon haqidagi mo'g'ul hikoyasida Semizgen kabi bir qancha variantlarda uchraydiki, bularning barchasi Samarqand nomi juda qadimiy ekanligi hamda uning kelib chiqishi, ya'ni etimologiyasi tamoman uzil-kesil hal bo'lmaganligini anglatadi.[5-87]

Manbalarda Buxoro atamasi sanskritcha «vixara» so'zining turk-mo'g'ulcha shakli - «buxor» («ibodatxona») dan kelib chiqqan degan fikrlar mavjud. Bu taxmin ko'pincha V.V.Bartold tomonidan ilgari suriladi. Keyingi tadqiqotlarda esa bu atama sug'diycha «bug»



yoki «bag» («tangri») hamda «oro» («jamol») so'zlaridan tarkib topgan va «tangri jamoli» degan ma'noni anglatadi, degan fikrlar ham qayd etilmoqda. Buxoroning "Madinat as-sufriya", "Madinat at-tujjor" va "Foxira" nomlari arablar tomonidan berilgan bo'lib, birinchisi - "Mis shahri", ikkinchisi - "Savdogarlar shahri" va uchinchi "Faxrli shahar" ma'nosini anglatadi.[2-57]

Xorazm viloyatidagi joy nomlarining 80 dan ortig'i **-lar** qo'shimchasi bilan tugaydi. Shunisi qiziqki, bu nomlar orasida Ko'paklar, Shag'allar, Echkilar, Qarg'alar kabi toponimlar ham bor. Bu joy nomlari hayvon nomlaridan tarkib topgan toponimlarga o'xshaydi. Lekin aslida esa *ko'pak*, *shag'al* (chiya bo'ri), *echki*, *qarg'a* degan urug' nomlari bo'lgan. Yuqorida keltirilgan joy nomlari shu urug'lar nomi bilan atalgan. Masalan, *Echkilar* "echki urug'idan bo'lgan kishilar yashaydigan joy" degan ma'noni bildirgan.

Xulosa o'rnida S.Qorayevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tamiz: "Geografik nomlar "o'lik" so'zlar emas, balki zamirida xalq hayoti, tarixi, tili va shunga o'xshash boshqa ko'plab sirlarni asrayotgan xazinadir". [1-6].

References:

1. Hakimov Q. Toponimika. T.Mumtoz so'z. 2016
2. Halim To'rayev "Buxoro tarixi" 2020
3. Suyun Qorayev .Toponimika. Toshkent 2006.
4. P.G`ulomov, M.Mirakmalov TOPONIMIKA VA GEOGRAFIK TERMINSHUNOSLIK Tosh.2005.
5. Zohid Madrahimov TARIXIY TOPONIMIKA (o'quv qo'llanma) «Navro'z» nashriyoti Toshkent 2017